

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI

NORKULOV SUKROB TURAKULOVICH

**TA'LIM MUASSASALARINI RAQAMLASHTIRISH ASOSIDA
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавления автореферата диссертации Доктора философии
(PhD) по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
economical sciences**

Norqulov Suxrob Turaqulovich

Ta’lim muassasalarini raqamlashtirish asosida samaradorligini oshirish.....3

Норкулов Сухроб Туракулович

Повышение эффективности образовательных учреждений на основе цифровизации.....29

Norkulov Sukhrob Turakulovich

Enhancing efficiency of educational institutions in reliance upon digitization.....55

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works60

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI

NORKULOV SUKROB TURAKULOVICH

**TA'LIM MUASSASALARINI RAQAMLASHTIRISH ASOSIDA
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya”

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Iqt3151 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Alimov Baxodir Batirovich iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rasmiy opponentlar:	Xoshimov Elmurod Abdusattorovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Vafoev Boburjon Rasulovich iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi fan doktori ilmiy darajasini beruvchi DSc.03/30.07.2022.I.16.05 raqamli Ilmiy kengashda 2024-yil «__»_____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100000, Toshkent shahri, Amir Temur shoh ko'chasi, 60A-uy. Tel: (99871) 234-53-34, faks: (99871) 234-46-26, e-mail: ilmiykengash@tfi.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100000, Toshkent shahri, Amir Temur shoh ko'chasi, 60A-uy. Tel: (99871) 234-53-34, faks: (99871) 234-46-26, e-mail: kutubxona@tfi.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «_____» _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil «__» _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

K.A. Sharipov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

M.K. Abdullaev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dosent

A.U. Burxonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy ceminar raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotining dinamik rivojlanishi va xalqaro integratsiya amaliyotida raqamlashtirish darajasining o'sib borishi oliy ta'lim muassasalari faoliyatining samaradorligini oshirishning zaruriy shartiga aylanmoqda. Xususan, "Xitoy Xalq Respublikasida oliy o'quv yurtlarining internetdan foydalanish darajasi 100,0 foizni, boshlang'ich va o'rta maktablarning multimediyali auditoriyalar bilan ta'minlanish darajasi 99,5 foizni tashkil etadi. Janubiy Koreyada universitetlarning raqamlashtirish darajasi 2018-yildan 2022-yilgacha bo'lgan davrda 64,3 foizga oshdi. Yevropa Ittifoqi davlatlarida oliy ta'lim muassasalari xarajatlarining qariyb 80 foizi davlat mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi va faqatgina 12 foizi ta'lim uchun pullik to'lovlar hisobidan moliyalashtiriladi"¹. Bu esa, ta'lim muassasalarini raqamlashtirish asosida samaradorligini oshirishning dolzarbligini namoyon etmoqda.

Jahonda global raqobat va integratsiya jarayonlarining jadallashuvi sharoitida ta'lim muassasalarini raqamlashtirish ko'lamini kengaytirish orqali raqamli ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Oliy o'quv yurtlarini raqamlashtirishda zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqish, raqamlashtirish asosida samaradorlik darajasini oshirish hamda baholashning uslubiy asoslarini takomillashtirish, ta'lim muassasasini raqamlashtirish va samaradorligini oshirish o'rtasidagi bog'liqlikni modellashtirish, ta'lim muassasalarini raqamlashtirishni moliyalashtirish tizimini rivojlantirish masalalari, bu boradagi ilmiy-tadqiqot ishlarining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda barqaror va raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish, yetakchi tarmoqlarni modernizatsiyalash va tarkibiy qayta tuzish, aholi turmush darajasini oshirishda raqamlashtirish jarayonlaridan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida "Raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish orqali barcha aholi maskanlarini va ijtimoiy obyektlarni hamda magistral avtomobil yo'llarini keng polosali ulanish tarmoqlari bilan qamrab olish, dasturiy mahsulotlar industriyasi hajmini 5 baravar, ularning eksportini esa 10 baravar oshirib, 500 million AQSH dollariga yetkazish makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning zaruriy shartlaridan biri sifatida e'tirof etilgan"². Shuningdek, raqamlashtirish muhim soha va tarmoqlar qatorida ta'lim tizimi iqtisodiyotga zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, malakali mutaxassislarni tayyorlab berishda katta ahamiyat kasb etadi. Ta'lim tizimini raqamlashtirish jarayonining iqtisodiy mazmuni va nazariy asoslarini takomillashtirish, ta'lim jarayonlarini raqamlashtirish sohasidagi qoidalar va qonunchilik talablarini o'z ichiga olgan "Hayot davomida ta'lim olish" tamoyili asosida o'qitishning maxsus axborot

¹ Teng Y., Wang X. The effect of two educational technology tools on student engagement in Chinese EFL courses. *Int J Educ Technol High Educ* 18, 27 (2021). doi: 10.1186/s41239-021-00263-0 [7]

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон "Янги Ўзбекистоннинг 2022-2026-йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги Фармони. - www.lex.uz

platformasini yaratish, oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonlarini raqamlashtirishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqotlarni moliyalashtirishda tijorat banklari tomonidan tashqi investorlarni jalb etish amaliyotini joriy qilish, O'zbekistonda raqamli texnologiyalar asosida interfaollikni ta'minlash, masofaviy ta'lim texnologiyalaridan kompleks foydalanishni yo'lga qo'yish asosida oliy ta'lim muassasalari samaradorligini oshirishning uzoq muddatli prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqish kabi vazifalarni amalga oshirishda mazkur muammolar yechimiga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2021-yil 1-apreldagi PF-6198-son "Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida", 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi farmonlari, 2024-yil 26-fevraldagi PQ-87-son "Mamlakatimizda raqamlashtirish sohasidagi xizmatlar eksportini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2024-yil 1-fevraldagi PQ-51-son "Raqamlashtirish sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 10-dekabrda PQ-42-son "Iqtisodiyot tarmoqlari uchun muhandis kadrlarni tayyorlash tizimini innovatsiya va raqamlashtirish asosida tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-son "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 1-apreldagi PQ-5047-son "Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 27-apreldagi PQ-3662-son "Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 545-son "Ilmiy va innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrda 696-son "Ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash jarayonlarining shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 19-iyuldagi 606-son "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida", 2017-yil 22-maydagi 304-son "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va

madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ta’lim muassasalarini raqamlashtirish va samaradorligini oshirish masalasi bo‘yicha uzoq xorijlik iqtisodchi olimlardan R. Barglov, H. Horst, D. Miller, A. Smit, P. Altbach, P. Peterson, B. Bexradnia, O. Zavaski-Richter, Zh. Qiang, I. Seo va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan. MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlari T. Nikulina, Ye. Starichenko, A. Sharikov, A. Kondakov, Yu. Astasheva, Ye. Nesterenko, A. Chebotarev, M. Kovalev, G. Golovenchik, A. Babkina, M. Fedorov, E. Peshina, Ye. Ustyujanina, M. Leviskiy, M. Yashina va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan³.

Ta’lim muassasalarini raqamlashtirish masalasi o‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A. Qorayev, F. Anarbayerov, T.Z. Teshabayev, Z. Otaqo‘ziyeva, B. Usmonov, A.S. Abdug‘affarov, R.X. Alimov, R.X. Ayupov, A.T. Kenjabayev va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan⁴.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ta’lim muassasalarini raqamlashtirish asosida samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ta’lim muassasalarini raqamlashtirish asosida samaradorligini oshirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarni tadqiq qilish va ularning amaliy ahamiyatiga baho berish;

ta’lim muassasalarini raqamlashtirish samaradorligini baholash uslublarini qiyosiy tahlil qilish;

ta’lim muassasalarini raqamlashtirish samaradorligini oshirish borasidagi xorij tajribasini tahlil qilish va undan O‘zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlariga baho berish;

³ Никулина Т.В., & Стариченко Е.Б. (2018). Информатизация и цифровизация образования: понятия, технологии, управление. Педагогическое образование в России, (8), 107–113.; Шариков А.В. Теоретические подходы к определению понятия цифровой грамотности: мат-лы Всерос. науч.-практ. конф. «Интернет и социокультурные трансформации» (г. Москва, 21-22 апреля 2015 г.) [Электронный ресурс]. — Режим доступа: <http://www.ifarcom.ru/files/2015/isct/presentations/sharikov.pdf>; Кондаков А.М. Цифровое образование: матрица возможностей [Электронный ресурс]. — Режим доступа: <http://ito2018.bytic.ru/uploads/materials/2.pdf> (дата обращения: 10.01.2019).

⁴ Отакузиева З.М. Роль и место информационной экономики в вопросах внедрения современных ИКТ на предприятиях Узбекистана. Сборник докладов. Республиканской научно-технической конференции «Значение информационно-коммуникационных технологий в инновационном развитии реальных отраслей экономики». 6-7 апреля 2017 года. ТУИТ. - С.403-405.; Усмонов Б.Ш. Олий таълимнинг инновацион фаолияти ва уни иқтисодийотни ривожлантиришдаги ўрни // Иқтисодийот ва инновацион технологиялар. – Тошкент, 2018. -№3. (электрон журнал); Анарбаева Ф.У., Қораев А.Ф. Таълим жараёнини рақамлаштириш/Таълим ва ривожланиш таҳлили. – Шеробод, 2022. № 7. (электрон журнал).

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim muassasalarini raqamlashtirishning amaldagi holatini tahlil qilish;

ta’lim muassasalarini raqamlashtirish samaradorligini oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan dolzarb muammolarni aniqlash;

ta’lim muassasalarini raqamlashtirish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tizimidagi ta’lim muassasalari olingan.

Tadqiqotning predmeti ta’lim muassasalarini raqamlashtirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy abstraksiya, analiz va sintez, ekspert baholash, statistik guruhlash va iqtisodiy tahlil usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra, “Ta’lim tizimini raqamlashtirish” tushunchasining iqtisodiy mazmuni asinxron va sinxron tarmoq texnologiyalari asosida masofaviy ta’limni yo‘lga qo‘yish, bulutli texnologiyalardan foydalangan holda, raqamli ta’lim ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonlarini chuqurlashtirish asosida takomillashtirilgan;

oliy ta’lim muassasi faoliyatining raqamlashtirilishi darajasini baholashda “Kvazi raqamli” texnologiyalardan xoli va bevosita ta’lim jarayonini raqamlashtirish holatlarini alohida tasniflash orqali ta’lim samaradorligini oshirish asoslangan;

oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim jarayonlarini raqamlashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqotlarni moliyalashtirishda tijorat banklari tomonidan tashqi investorlarni jalb etish amaliyotini joriy qilish taklifi asoslangan;

O‘zbekistonda raqamli texnologiyalar asosida interfaollikni ta’minlash, masofaviy ta’lim texnologiyalaridan kompleks foydalanishni yo‘lga qo‘yish asosida oliy ta’lim muassasalari samaradorligini oshirishning 2030-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

masofaviy ta’lim natijalarini baholash tizimini takomillashtirish yo‘li bilan oliy ta’lim tizimida malaka oshiruvchilar soni va malaka oshirish sifatini ko‘tarish asoslab berilgan;

ta’lim jarayonlarini raqamlashtirish asosida moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirishning ilmiy-tadqiqotlarni davlat buyurtmalari asosida amalga oshirish tizimiga davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini keng ko‘lamda joriy qilish, ilmiy-tadqiqotlarni moliyalashtirish amaliyotiga franchayzingni joriy etish yo‘llari tavsiya etilgan;

masofaviy ta’lim auditoriyasini tashkil etish yo‘li bilan internet-texnologiyalari asosida interfaollikni ta’minlash, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadida, masofaviy ta’lim texnologiyalaridan kompleks foydalanishni yo‘lga qo‘yish va masofaviy ta’lim natijalarini Bern modeli bo‘yicha baholashning maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan.

yangi interaktiv ta'lim axborot resurslarini ishlab chiqish va yaratish, shuningdek, ta'limning barcha darajalari uchun "onlayn ta'lim" elementlarini joriy qilish, soha uchun yagona axborot makonini tarmoqli davlat raqamli platformasini yaratish asosida shakllantirish, uning doirasida talabalar va muassasalar o'rtasida samarali hamkorlikni tashkil etish uchun elektron xizmatlar va tahliliy vositalarni ishlab chiqish taklifi asoslangan;

talaba faoliyatini qayd etuvchi, talabaning ehtiyojlarini inobatga olgan holda u to'g'risidagi ma'lumotlarni to'playdigan va tahlil qiladigan hamda identifikatsiyalangan "Ta'lim platformalarini"ni yaratuvchi xizmatlarni joriy etish, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida funksiyalarni amalga oshiruvchi boshqa davlat organlarining davlat axborot tizimlari va resurslari bilan integratsiyalashuvni amalga oshirish taklifi ishlab chiqilgan;

ta'lim muassasalari boshqaruvining korporativ identifikatsiyasi va korporativ mas'uliyat uchun raqamli infratuzilmani yaratish orqali ta'lim muassasasi faoliyati samaradorligini oshirish taklifi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, berilgan ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalarning amalda sinovdan o'tganligi, iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahliliga, ilg'or xorij tajribasini o'rganish va umumlashtirish natijalariga hamda rasmiy va statistik ma'lumotlar tahlillariga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan nazariy-uslubiy ahamiyatdagi xulosa va takliflardan kelgusida ta'lim tizimining samaradorligini oshirishga bag'ishlangan maxsus ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ilgari surilgan amaliy-uslubiy ahamiyatdagi xulosa va takliflardan respublikada ta'lim muassasalarini raqamlashtirish samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish, oliy ta'lim sohasida istiqboli ta'lim jarayonini ta'minlash monitoringi tizimini ishlab chiqishga qaratilgan mexanizmni joriy qilish, ta'lim jarayoni bilan bog'liq statistika tizimlarini modernizatsiya qilish, sun'iy intellekt yordamida tahlillarni amalga oshirish, ta'lim tizimida qog'ozsiz hujjat aylanishini ta'minlash jarayonlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ta'lim muassasalarini raqamlashtirish asosida samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra, "Ta'lim tizimini raqamlashtirish" tushunchasining iqtisodiy mazmunini asinxron va sinxron tarmoq texnologiyalari asosida masofaviy ta'limni yo'lga qo'yish, bulutli texnologiyalardan foydalangan holda, raqamli ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish jarayonlarini chuqurlashtirish asosida takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy ma'lumotlardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Raqamli biznes transformatsiyasi" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot

universitetining 2023-yil 14-iyuldagi 228-sonli buyrug‘i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida oliy o‘quv yurtlari talabalarida asinxron va sinxron tarmoq texnologiyalari asosida masofaviy ta‘limni yo‘lga qo‘yish, bulutli texnologiyalardan foydalangan holda, raqamli ta‘lim ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonlarini chuqurlashtirish asosida takomillashtirilgan ta‘lim tizimini raqamlashtirish tushunchasi bo‘yicha nazariy bilim va ko‘nikmalarni chuqurlashtirish imkoni yaratilgan;

oliy ta‘lim muassasi faoliyatining raqamlashtirilishi darajasini baholashda “Kvazi raqamli” texnologiyalardan xoli va bevosita ta‘lim jarayonini raqamlashtirish holatlarini alohida tasniflash orqali ta‘lim samaradorligini oshirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 13-apreldagi № 03/03-1014-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida respublika oliy ta‘lim muassasalari faoliyatining raqamlashtirilishi darajasini baholashda bevosita ta‘lim samaradorligini oshirishga ta‘sir ko‘rsatuvchi jihatlarni aniqlashtirish hamda raqamlashtirishning muhim yo‘nalishlarini belgilash imkoni yaratilgan;

oliy ta‘lim muassasalaridagi ta‘lim jarayonlarini raqamlashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqotlarni moliyalashtirishda tijorat banklari tomonidan tashqi investorlarni jalb etish amaliyotini joriy qilish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 13-apreldagi № 03/03-1014-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mamlakatdagi oliy ta‘lim muassasalari ta‘lim jarayonlarini raqamlashtirishda tijorat banklari tomonidan tashqi investorlarni jalb etish orqali ilmiy-tadqiqotlarni moliyalashtirishni kengaytirish hamda samaradorligini oshirish imkoni yaratilgan;

O‘zbekistonda raqamli texnologiyalar asosida interfaollikni ta‘minlash, masofaviy ta‘lim texnologiyalaridan kompleks foydalanishni yo‘lga qo‘yish asosida oliy ta‘lim muassasalari samaradorligini oshirishning 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 13-apreldagi № 03/03-1014-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mamlakatda raqamli texnologiyalar asosida oliy ta‘lim muassasalari samaradorligini oshirishning uzoq muddatli istiqbol ko‘rsatkichlari yordamida soha faoliyatini rivojlantirishning asosiy faoliyat parametrlarini o‘zaro muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan, 16 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi mavzusi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola (3 ta milliy va 1 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 134 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, ularning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, ilmiy izlanish natijasida olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, amaliyotga joriy etilganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Ta’lim muassasalarini raqamlashtirish asosida samaradorligini oshirishning ilmiy-nazariy va huquqiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida, ta’lim sohasini raqamlashtirishning mazmun-mohiyati va nazariy asoslari, Ta’lim muassasalarini raqamlashtirishga doir me’yoriy-huquqiy asoslar tavsifi hamda ta’lim muassasalarini raqamlashtirish asosida samaradorligini oshirishning xorijiy tajribalari tadqiq qilingan.

Ta’lim sohasini raqamlashtirish iqtisodiy adabiyotda ilmiy munozara obyektiga aylangan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ta’lim sohasida raqamlashtirish XX asrning 90-yillarida dunyo ilm ahlining e’tiborini tortdi. Xorijlik mualliflarning tadqiqotlarida dastlab ta’lim sohasidagi raqamlashtirishning asosiy tasnifiy belgilarini aniqlash, raqamli madaniyat tushunchasiga aniqlik kiritish, ta’lim sohasida qo’llaniladigan raqamli texnologiyalarning afzalliklari va kamchiliklarini asoslashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi.

T. Nikulinaning xulosasi respublikamiz ta’lim tizimi uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, respublikamizda ta’lim sohasini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida rivojlantirish jarayoni nihoyasiga yetgani yo‘q, ikkinchidan, virtual reallik texnologiyalari ta’lim tizimiga joriy etilmagan.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, virtual reallik texnologiyalari deganda insonga maxsus qurilmalar vositasida virtual dunyoga sho‘ng‘ish imkonini beradigan texnologiyalar majmui tushuniladi.

A. Sharikovning fikriga ko‘ra, raqamli transformatsiyaning texnologik asoslari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

– sun’iy intellektning bo‘lg‘usi asosi – «katta ma’lumotlar»ning mavjudligi;

- ko‘p sonli foydalanuvchilarni jalb etishning zarurligi;
- makonning istalgan nuqtasidan axborotlarni olishning mumkinligi;
- ma’lumotlarni «bulut»da saqlanishi.

Yu. Astashevaning fikriga ko‘ra, muvaffaqiyatli raqamlashtirish uchun o‘quv materiallarini elektron shaklga o‘tkazish yetarli emas. Yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish raqamli pedagogikani yanada rivojlantirish uchun faqat boshlang‘ich sharoit hisoblanadi, uning baholash mezonini bo‘lib, uning ta’lim olayotganlarga foydaliligi hisoblanadi. O‘quv kurslarining mazmuni va tuzilishidagi jarayonlarning samaradorligini sifat jihatdan o‘rishini ta’minlaydigan yangiliklarni joriy etish, universitetlardagi tashkiliy va tarkibiy o‘zgarishlar talabalarga haqiqiy foyda keltiradi.

Haqiqatdan ham, muvaffaqiyatli raqamlashtirish o‘quv kurslarining mazmuni va tuzilishida sifat o‘zgarishlarini paydo bo‘lishiga olib kelishi kerak.

Ye.Nesterenkoning fikriga ko‘ra, Big Data (Ulkan ma’lumotlar) texnologiyasi juda katta hajmdagi ma’lumotlarni yuqori tezlikda va aniqlikda qayta ishlash imkonini beradigan raqamli texnologiya bo‘lib, uning quyidagi 3 muhim belgisi mavjud:

- Volume (Hajm)
- Velocity (Tezlik)
- Variety (Xilma-xillik).

A.Chebetaryovning xulosasiga ko‘ra, sun’iy intellekt texnologiyasi kompyuterlarni inson kabi fikrlashga o‘rgatish texnologiyasi bo‘lib, ma’lumotlarni turli manbalardan oladi (informatika, matematika, lingvistika, psixologiya, biologiya, mashinasozlik) va katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash asosida qarorlar qabul qiladi.

I. Saviskayaning fikriga ko‘ra, ta’lim sohasini raqamlashtirish barcha uchun ta’lim sifatini, o‘quvchilarga nisbatan individual yondashuvni va tabaqalashgan yondashuvni ta’minlash yo‘li bilan oshirish, imkonini beradi”.

A.Zaurning xulosasiga ko‘ra, koronavirus pandemiyasi davrida jahon iqtisodiyotining ilm sig‘imi yuqori bo‘lgan tarmoqlari tadqiqotlar va ishlanmalar segmentiga rekord darajada qo‘shimcha investitsiyalar jalb qilishdi; xususiy kompaniyalarning raqamli iqtisodiyotdagi ahamiyati oshdi; pandemiya davrida ochiq ilm-fanning ijobiy samarasi isbotlandi.

Z.Otakuziyevaning xulosasiga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot asosini elektron komponent va uskunalari (hardware), dasturiy ta’minot (software), tarmoq va ma’lumotlar uzatish xizmatlarini tashkil etadigan (communication), shuningdek, integratsiya va konsalting xizmatlari (services)ni ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq tarmoqlar tashkil etadi.

B.Usmonovning fikriga ko‘ra, oliy ta’limning innovatsion faoliyatini rivojlantirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

ko‘pchilik yo‘nalishlarda zaiflashgan tarmoqli ilmiy-tadqiqot institutlari tizimini yangi sifat darajada almashtirishga qobiliyatli bo‘lgan, asosan fanlararo yo‘nalishlardagi innovatsion, amaliy tadqiqotchilik tarmog‘ini rivojlantirish zarur;

mamlakat taraqqiyotining innovatsion yo‘li, shuningdek, innovatsion tadbirkorlikni jiddiy faollashtirishni, tegishli innovatsion tuzilmalar tuzish amaliyotini kengaytirish mexanizmlarini amalga oshirish kerak;⁵

korxonalar talablariga mos keluvchi mutaxassislarni tayyorlashning yangicha sifatini shakllantirish lozim bo‘lib, ularning tayyorlanishini OTM professor-o‘qituvchilarini yetakchi tadqiqotlarga jalb qilishsiz, talabalarning bunday ishlarda shaxsiy ishtiroklarini amaliyotisiz amalga oshirib bo‘lmaydi.

F.Anarbayeva va A.Qorayevning xulosasiga ko‘ra, “Ta’limni raqamlashtirish birinchi navbatda, talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida onlayn ko‘rinishdagi muloqot integratsiyasini rivojlantirsa, ikkinchi tomondan, talabalarning o‘z ustida ilg‘or o‘quv texnologiyalaridan foydalangan holda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu esa hozirgi rivojlanish jaraenida raqamlashtirishning yangi tendensiyalarini ta’lim jaraeniga qo‘llashda muhim ahamiyat kasb etadi”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni bilan tasdiqlangan Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida raqamli iqtisodiyotni asosiy “drayver” sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning zaruriy shartlari sifatida e’tirof etilgan.

Shuningdek, “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasida raqamli infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar sifatida quyidagilar belgilangan:

optik tolali aloqa liniyalari, xalqaro kommutatsiya markazlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish orqali mintaqaviy va xalqaro telekommunikatsiya tarmoqlarining, O‘zbekiston Respublikasining chegaradosh Markaziy Osiyo davlatlari bilan tranzit aloqalarining o‘tkazuvchanlik qobiliyatini kengaytirib borish;

taqdim etilayotgan xizmatlar hajmini oshirish, rezervlash, tizimlarning ishonchligini ta’minlash, shuningdek, aholi punktlari va ijtimoiy ob’ektlarni keng polosali xizmatlardan foydalanish imkoniyati bilan ta’minlash uchun ma’lumotlar uzatish tarmog‘ini kengaytirish va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrdagi PQ-3416-sonli qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etildi va O‘zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vaziriga quyidagi vazifalar yuklandi:

– zarur hollarda, boshqaruv xodimlarining belgilangan soni va mehnatga haq to‘lash fondi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi (keyingi o‘rinlarda Vazirlik deb yuritiladi) markaziy apparatining tuzilmasiga o‘zgartirishlar kiritish;

⁵ The World University Rankings 2020: methodology. – Electronic text data. – Mode of access: <https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings/world-universityrankings-2020-methodology> (date of access: 27.11.2019). – Title from screen.

– innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasining mablag'lari hisobidan Vazirlik xodimlarining qo'shimcha shtat birliklarini joriy etish;

– vazirlikka yuklatilgan vazifalarni bajarish doirasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar, yetakchi loyiha institutlari, ilmiy-ta'lim muassasalarining yuqori malakali mutaxassislari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar, chet el kompaniyalari va mutaxassislarini maslahatchi sifatida jalb qilish;

– yuqori malakali chet el mutaxassislarini ishga qabul qilish, shuningdek, ularga Jamg'arma mablag'lari hisobidan ish haqi va boshqa to'lovlarni belgilash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentabrdagi PF-5544-sonli Farmoni bilan 2019–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi.

Mamlakatni innovatsion rivojlantirish strategiyasiga muvofiq:

– vazirlik va idoralar rahbarlariga davlat ilmiy-ta'lim muassasalari rahbarlariga ilmiy-ta'lim muassasalari, nodavlat notijorat tashkilotlari vakillarini, mustaqil ekspertlarni (konsultantlarni), shu jumladan, xorijiy mamlakatlardan keng jalb etgan holda Strategiyada va "Yo'l xaritasi"da nazarda tutilgan tadbirlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi, maqsadga ko'rsatkichlarga erishish bo'yicha;

– davlat ilmiy-ta'lim muassasalari rahbarlariga Strategiyada va "Yo'l xaritasi"da nazarda tutilgan tadbirlarni ilmiy-tadqiqot jihatidan qo'llab-quvvatlash, vazirlik va idoralarga maqsadli ko'rsatkichga erishish uchun ilmiy tadqiqotlar va ma'ruzalar, tahlil materiallar tayyorlashda har tomonlama ko'maklashish bo'yicha shaxsiy javobgarlik belgilab qo'yildi.

Shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini innovatsion rivojlanishini ta'minlashda, oliy ta'lim muassasalarining mamlakat iqtisodiyotini innovatsion rivojlanishini ta'minlashdagi rolini oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-apreldagi PQ-3662-sonli "Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi muhim rol o'ynadi.

Janubiy Koreyaning ta'lim tizimini raqamlashtirish borasidagi muvaffaqiyatli loyihalaridan biri – bu Smart-maktablar loyihasidir. Smart-maktablar – bu to'liq kompyuterlashgan umumta'lim muassasalari bo'lib, ularda o'quvchilar axborot resurslaridan foydalanishni o'rganadilar. Janubiy Koreya keng polosali internet va ovozli aloqadan foydalanuvchi yuqori texnologiyali mamlakat sifatida yetakchi pozitsiyaga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Mamlakatda raqamlashtirish dasturlarini amalga oshirishda tayanch rolni davlat o'ynaydi. Bunda muvaffaqiyatning garovi bo'lib, xususiy kompaniyalarning raqamlashtirish jarayonlariga faol jalb etilganligi hisoblanadi. Janubiy Koreyada "Kelajak maktablari" loyihasi maktab o'quvchilarini adaptivlik, o'zgarishlarga tayyor bo'lish ruhida tarbiyalash, ulkan axborot oqimlariga yo'naltirilgan elektron ta'lim, raqamli texnologiyalar bilan ishlashga yo'naltirilgan loyiha hisoblanadi.

Umuman olganda, Janubiy Koreya ta'lim tizimini raqamlashtirish jarayonlarida qo'llanilgan yondashuvlarning umumiy tavsifi sifatida raqamli aktivlarni va raqamli servislarning yaratilishini alohida ajratib ko'rsatish mumkin.

Ularga axborot-ta'lim muhiti doirasida shakllantirilgan va taklif etilgan quyidagi raqamli ta'lim mahsulotlari kiradi:

- onlayn kurslar;
- video-ma'ruzalar
- ta'lim dasturlari;
- ta'lim platformalari.

“University of the People”, universiteti to'liq raqamlashtirilgan universitet bo'lib, u ta'lim jarayonlarini Moodle platformasi orqali raqamli makonga olib chiqish imkonini berdi. O'qituvchilar va talabalar ushbu platforma orqali to'liq va erkin muloqotni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lib, barcha dars mashg'ulotlari ushbu platforma orqali amalga oshiriladi.

Taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasi ko'rsatadiki, universitetlarda ta'lim sohasini raqamlashtirishda texnoparklar muhim o'rin tutadi.

Finlandiyada universitetlari nafaqat o'quv seminarlar dasturlarida, balki, yangi texnika va texnologiyalarni tijoratlashtirishda ham faol ishtirok etadi.

Masalan, Xelsinki texnologiya universiteti ilmiy tadqiqotlar olib borib, fan va biznes o'rtasidagi aloqadorlikni ta'minlaydi. Jumladan, xususiy kompaniyalar bilan hamkorlikda innovatsion texnologiyalarni sotishni va bitiruvchilarni ishga joylashtirishni tashkil qiladi.

Geydelberg texnoparki Germaniyaning Geydelberg universitetining bazasida tashkil etilgan bo'lib, texnopark va universitet o'rtasida ilmiy hamkorlik yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Bundan tashqari, Geydelberg texnoparki boshqa universitetlar bilan ham ilmiy hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Bu esa, ko'plab birgalikdagi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish imkonini beradi.

AQSH tajribasini o'rganish natijalari ko'rsatadiki, oliy o'quv yurtlarining innovatsion faoliyati davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Bey-Doll qonunida oliy o'quv yurtlarining tadbirkorlik funksiyasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'zda tutilgan. Buning natijasida, AQSH oliy o'quv yurtlari o'zlarining ilmiy-innovatsion va tadqiqot faoliyati natijalaridan bevosita manfaat olish imkoniga ega bo'ldilar.

Ta'limni raqamli transformatsiya qilish jarayoni – bu shakllanish va ta'lim tashkilotlari ishining yangi modellarini tarqatish, ta'lim mazmunini o'zgartirish va ta'limga malakali qo'shilish raqamli texnologiyalar, sifatli vositalar va samarali jarayon boshqarmasi. YEDUCAUSE assotsiatsiyasi tadqiqotchilari an'anaviy “analog”dan “raqamli tashkilot”gacha bo'lgan yo'l uch bosqichda birlashtirilganligini aniqladilar.


Birinchisi – “raqamlashtirish” ikki bosqichni o'z ichiga oladi: ma'lumotlarni raqamlashtirish va axborotni tizimlashtirish.⁶

Ikkinchisi – “raqamlashtirish”, shuningdek, ikki bosqichni o'z ichiga oladi: avtomatlashtirish jarayonlar va jarayonlarni optimallashtirish.

⁶ .O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-apreldagi PQ-3662-sonli “Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. QHMMB:07/18/3682/1117-son. 28.04. 2018 y.

Bu alohida operatsiyalarni o'zgartirish uchun texnologiya va axborot raqamlaridan foydalanish jarayonidir.

Uchinchisi – “raqamli transformatsiya”. Bu bir qator chuqur o'zgarishlar yani ta'lim madaniyati, xodimlar va texnologiyalarda tashkilot faoliyatini o'zgartirish, yangi ta'lim va boshqaruv modellaridan foydalanish jarayonidir.



1-rasm. Bozor hajmi va bozor kapitallashuvi: global bozor, sog'liqni saqlash, ta'lim⁷.

Bugungi kunda ro'y berayotgan va rejalashtirilgan o'zgarishlarning asosiy maqsadi, ta'limning raqamli transformatsiyasi bilan bog'liq-yo'naltirilgan ommaviy sifatli ta'limga o'tishdir.

Dissertatsiya ishining “**Ta'lim muassasalarini raqamlashtirish asosida samaradorlikni oshirish amaliyoti**” deb nomlangan ikkinchi bobida, ta'lim muassasalarini raqamlashtirish asosida, samaradorlikni baholash uslublari va ularning qiyosiy tahlili, ta'lim sohasini raqamlashtirish jarayonlarining uslubiy jihatlari va ta'lim muassasalarini raqamlashtirish asosida samaradorligini oshirishdagi muammolar tadqiq etilgan.


Jahonda Ta'lim assotsiatsiyasi tomonidan e'lon qilib boriladigan «Horizon Report» hisobotida ta'lim muassasalari samaradorligini yanada oshirishning asosiy tendensiyalari sifatida gibridd ta'lim modellarining keng qo'llanilayotganligi, ta'lim muassasalarini raqamlashtirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning umumiy yillik o'sib borayotganligi, shuningdek, o'qituvchi va masterlarning onlayn tarzda raqamli voistalardan foydalanish borasidagi malakasini oshirish ta'lim muassasalarini raqamlashtirish asosida samaradorlikni oshirishning yetakchi texnologik yo'nalishlari sifatida ta'kidlangan. Bu borada, xalqaro ekspertlarning ta'kidlashicha, “ta'lim muassasalari va ushbu sohadagi bu kabi o'sish

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy saytidagi ma'lumotlar asosida tayyorlandi.

tendensiyalari COVID-19 pandemiyasining ta'sirining natijasidir. Bunda, ta'lim sohasidagi jarayonlar uzoq vaqt mobaynida raqamlashtirish jadallashti".

Yuqoridagilar kelib chiqib, aytish mumkinki, turli o'zgarishlar va tashqi ta'sirlar sharoitida ta'lim muassasalarini raqamlashtirish asosida, samaradorlikni baholash orqali mazkur soha faoliyatini doimiy tahlil etib borish maqsadga muvofiq, Bu borada quyidagilarni tadqiq etdik:

"B. Blum taksonomiyasi" vositasida baholash o'qish jarayonida talabalar va tinglovchilarni bilim va ko'nikmalarni qay darajada o'zlashtirganliklarini baholash imkonini beradi. Masalan, VR (virtual reallik) va AR (qo'shimcha reallik) texnologiyalari asosida o'qitish natijalarini baholashda bilimlarni o'zlashtirishning sifati ularni qo'llash darajasiga qarab amalga oshiriladi. Chunki, mazkur texnologiyalardan aniq olingan vaziyatlarda harakatlarni yuqori reallikda amalga oshirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish maqsadida foydalaniladi.




2-rasm. Ta'lim muassasalari raqamlashtirish samaradorligini baholashning Bloom taksonomiyasi modeli⁸.

"Bloom taksonomiyasi" 6 darajadan iborat bo'lib, ta'lim muassasalari samaradorligini baholashning ierarxik modeli hisoblanadi.

Ushbu model doirasida ta'lim muassasalarini raqamlashtirish asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir, sababi raqamlashtirish vositalari orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, uni nazorat qilish uchun o'qituvchi ish jarayonida qo'llaniladigan raqamli topshiriq va savollar tafakkurning qay darajada rivojlanganligini tahlil etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu ma'noda, ta'lim muassasalarini raqamlashtirish asosida samaradorlikni baholashda Bloom taksonomiyasi – bu o'quvchilarning barcha turdagi aqliy faoliyatini kuzatishga yordam beradigan vosita. Ta'lim

⁸ Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnali ma'lumotlari asosida tayyorlandi. 6-son 2022.

muassasalarini raqamlashtirish asosida ularning samaradorligini Blum modeli bo'yicha baholashda bilimi baholanayotganlarga olti turdagi topshiriqlar bajarish uchun navbati bilan beriladi. Bunda har bir topshiriq Blum taksonomiyasi bo'yicha bilimlarni o'zlashtirishning ma'lum turini (eslab qolish, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez, baholash) aks ettiradi. Ushbu toshiriqlarni ta'lim tashkilotining o'zida, o'rganilgan fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Xodim qancha ko'p topshiriqni bajarsa, uning bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi shunchalik yuqori hisoblanadi, demak, uni o'qitish samarasi yuqori bo'ldi. Mazkur topshiriqlarni bajarish natijalari asosida rahbariyatga joriy etilgan raqamli texnologiyalar an'anaviy formatga qaraganda ma'lumotlarni yuqori darajada o'zlashtirish imkonini berdimi yoki bermadimi, shu haqida ma'lumot taqdim etish imkonini beradi.




3-rasm. Ta'lim muassasalarini raqamlashtirish orqali samaradorlikni ekspert baholash usuli⁹.

Ta'lim muassasalarini raqamlashtirishni rivojlantirish orqali samaradorlikni nemis olimi O. Zavaski-Rixter Delfi ekspert baholash usuli asosida ko'rilayotgan sohadagi tadqiqotlarni tasniflash sxemasini taklif qildi. U axborot-texnologiyalariga asoslangan ta'limning uch darajasini ajratib ko'rsatdi.

Ta'lim muassasalarini raqamlashtirishning rivojlanganlik darajasini baholashning zamonaviy usullarini ikki guruhga bo'lingangi tadqiqotlarimizda aniqlandi. Jumladan, rus olimlari N.Sh. Vatolkina va N.R. Kaminina ta'lim

⁹ Pedagogik mahorat ilmiy-nazariy va metodik jurnali ma'lumotlari Asosida tayyorlandi. 6-son 2021-yil, dekabr 18

muassasalarini raqamlashtirish asosida samaradorligini baholashning ikki turini ajratishni taklif etgan¹⁰:



4-rasm. Ta'lim muassasalarini raqamlashtirish asosida samaradorligini baholash modellari¹¹.

Xalqaro amaliyotda ta'lim muassasalarining raqamlashtirish darajasini reyting tizimi orqali baholashga katta e'tibor qaratilmoqda. Oliy o'quv yurtlarining xalqaro reytinglarini paydo bo'lishi oliy ta'limning globallashuv tendensiyasini aks ettiradi. Ta'lim muassasalarini raqamlashtirish strategiyasini, yangi texnologiyalardan foydalanishga ommaviy tarzda o'tishga javob sifatida, ishlab chiqishmoqda, lekin, ularda umumiy ko'rishning mavjud emasligi raqamli texnologiyalarni samarasiz joriy etishga olib kelmoqda. Oliy o'quv yurtlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish xodimlarni va talabalarni raqamli ko'nikmalarga o'qitishga qilinadigan qo'yimalarga, shuningdek, ularni qo'llab-quvvatlash tarmoqlari bilan aloqadorligiga bog'liq.

Bir guruh tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, har bir oliy o'quv yurti raqamli transformatsiyadan o'tishi kerak va ushbu jarayon IT qarorlarni va boshqaruvning moslashuvchan jarayonlarini joriy qilishni, korporativ madaniyatdagi va tashkiliy tuzilmalardagi o'zgarishlarni o'z ichiga olishi kerak. Bunda raqamli universitetni yaratishga o'tish quyidagi omillarga asoslanishi kerak:

- maqsadli auditoriya tomonidan raqamli kommunikatsiyalardan (digital natives) foydalanish;
- yangi texnologiyalarni o'zlashtirayotgan universitetlar o'rtasidagi raqobatning kuchayishi;
- bo'linmalar o'rtasidagi hamkorlikning samaradorligini oshirish uchun ichki jarayonlarni boshqarishni optimallashtirishning zarurligi.

¹⁰ Железные дороги ЦАРЭС 2030 – Сделать железную дорогу предпочтительным видом транспорта, ЦАРЭС, 24-26 ноября 2015 г. Токио, Япония / <http://www.carecinstitute.org>.

¹¹ M.N. Rasulovaning "Ishlab chiqarish jarayonida o'qituvchilar malakasini oshirishning zamonaviy modellari" maqolasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi. International scientific journal "Interpretation and researches" Volume 2 issue 6 (28) ISSN 2181-4163 Impact Factor 8.2.

Raqamlashtirishning asosiy afzalliklaridan biri bu talabalarning faolligini oshirish imkoniyatlaridir. Onlayn ta'lim platformalari, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar kabi raqamli vositalardan foydalangan holda, universitetlar o'quvchilarni motivatsiya va yo'lda ushlab turadigan interaktiv hamda qiziqarli ta'lim tajribalarini yaratishi mumkin. Shuningdek, raqamlashtirish universitetlarga o'yin va virtual haqiqat kabi yangi o'qitish usullaridan foydalanish imkonini beradi. Bu usullardan talabalarga murakkab tushunchalar va nazariyalarni tushunishni osonlashtiradigan interaktiv ta'lim tajribasini yaratish uchun foydalanish mumkin.

Talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirish, ularda zarur kompetensiyalarni shakllantirish orqali ishga joylashish ko'rsatkichlarini ko'paytirish hamda turli vositalar orqali ma'lumotlarni yetkazish va tushuntirish usullarini qo'llagan universitetlar nufuzi oshishi hamda ularda mazkur imkoniyatlar orqali qo'shimcha foyda olishi uchun shart-sharoitlar yaratilishi orqali boshqalarga nisabatan ustunlik shakllanadi.

Ta'lim jarayoniga oliy ta'lim muassasalaridan olinadigan turli hisobot va ma'lumotlar sonini keskin kamaytirish, ularni tayyorlashning qog'oz shaklidan voz kechish, boshqaruv tizimini raqamlashtirish maqsadida Raqamli universitet loyihasi doirasida "Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi" (HEMIS – Higher Education management Information Systems) ishlab chiqildi. Ushbu axborot tizimi "Ma'muriy", "O'quv", "Ilmiy" va "Moliyaviy" jarayonlarini boshqarish modullarini o'z ichiga oladi. 2021-yil 1-sentabrdan boshlab bosqichma-bosqich oliy ta'lim muassasalarida joriy etish orqali:

"O'quv jarayoni" modulida guruh jurnali, dars jadvali, imtihonlar jadvallari, talabaning reyting daftarchasi, o'zlashtirish qaydnomalari, davomat hisobotlari, diplom va akademik ma'lumotnomalar raqamlashtirildi;

"Ma'muriy jarayoni" modulida oliy ta'lim muassasasi strukturasi, talabalar kontingenti va ularning harakati, professor-o'qituvchilar tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlarni yuritish hamda hisobotlarni tayyorlash raqamlashtirildi;

"Ilmiy jarayon" modulida professor-o'qituvchilarning ilmiy loyihalari, maqolalari va ilmiy-uslubiy nashrlari, ilmiy izlanuvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish hamda o'qituvchilar va kafedralarning ilmiy reytingini baholash masalalari raqamlashtirilmogda;

"Moliyaviy jarayon" modulida talabalarning QR-kodli to'lov-shartnomalarini shakllantirish, talabalarga elektron ko'rinishda taqdim etish, shartnoma to'lovlari monitoringini yuritish, talabalarga stipendiya belgilash to'g'risidagi ma'lumotlar tizim orqali amalga oshiriladi.

"2016–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasida zamonaviy raqamli ta'lim muhiti" loyihasini amalga oshirish doirasida ta'lim tashkilotlari onlayn makonda ta'lim faoliyatini amalga oshirishga o'tmoqdalar. Ushbu loyihaning maqsadi "raqamli ta'lim makonini rivojlantirish" orqali ta'lim samaradorligini oshirish va uzluksiz ta'lim konsepsiyasini amalga oshirishdir. Ilmiy va pedagogik xodimlarning leksikoniga "onlayn kurs" tushunchasini kiritish zarurati "o'qituvchi" kasbiy standarti, menejerlar, mutaxassislar va xodimlar lavozimlarining yagona malaka ma'lumotnomasi kabi me'yoriy hujjatlar talablarini

aks yettiruvchi qo‘shimcha kasb-hunar ta’limi tizimida¹² kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuvdan foydalanishga o‘tish bilan bog‘liq. “Ta’lim tashkiloti rahbari” professional standarti, onlayn kurslar talabalarga individual ta’lim traektoriyasini yaratishga, o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘zini-o‘zi tashkil etish rejalarini tuzishga imkon beradi. Ilmiy va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, bugungi kunda “onlayn kurs” atamasining formulasi mavjud emas. “Masofaviy kurs” va “elektron kurs” sinonim iboralarini “onlayn kurs” ta’rifiga tenglashtirish to‘g‘ri emas. Odatda, onlayn kurslar ta’limni boshqarish tizimida yoki virtual o‘quv muhitida (ingl. LMS – Learning Management System, Vle-Virtual Learning Environment), mahalliy amaliyotda o‘quv materiallarini yaratish, saqlash va tarqatish, akademik ko‘rsatkichlarni kuzatish, baholashni amalga oshirish, shuningdek, ta’limni boshqarish imkonini beradigan – “masofaviy o‘qitish tizimi” qisqartmasi qo‘llaniladi.

1-jadval.


LMS tizimlarining afzalliklari va kamchiliklari.

№	LMS turlari	Afzalliklari	Kamchiliklari
1	eTutorium LMS	Bepul 14 kunlik muddat mavjud; qulay interfeys; o‘yinlashtirish vositalari; batafsil tahlil	Integratsiya to‘plami yetishmaydi; pulli LMS
2	ISpring Learn	Cheksiz ma’lumotlarni saqlash; chop etish uchun kurs sertifikatlari taqdim etiladi	Sozlash mumkin emas; quti versiyasi yo‘q; foydalanuvchi turlari soni cheklangan; pulli LMS
3	GuruCan	Sinov muddati bor; o‘yinlashtirish vositalari	Korporativ ta’lim uchun mos emas; o‘qish sertifikatini yaratish imkoni mavjud emas
4	Mirapolis	Savol/javob konstruktori mavjud;	Moslashuvchan sozlamalar tizimni ishga tushirish uchun uzoq vaqt kerak bo‘ladi; pullik LMS
